

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIK TA’LIM: XALQARO
TAJIRIBA VA INNOVATSION
YONDASHUVLAR**

*mavzusidagi an’anaviy ilmiy-amaliy anjuman
materiallari*

(Buxoro, 2022-yil 6-aprel)

Buxoro – 2022



изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – 359 б.

7. Шомақсудов Ш., Долимов С. Кенг уйнинг келинчаги. – Тошкент, 1961. – 224 б.

8. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Совет Ўзбек Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – 526 б.

9. <http://amuziyo.uz>

10. <http://library.ziyonet.uz>

GLOBALASHUV JARAYONIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH

Sh.B. Murtozayev

BuxDUPI o‘qituvchisi

B.A. Axtamov

BuxDUPI talabasi

Vatanimizning mustaqillikka erishuvi butun insoniyat hayotida behad murakkab muammolar ko‘ndalang bo‘lgan va tub burilishlar boshlangan juda murakkab davrga to‘g‘ri keldi. Tarixning kengroq vaqt o‘lchamida qaralsa, bu aslida XX asr avvalida boshlangan tarixda misli ko‘rilmagan siyosiy to‘ntarishlar, alg‘ov-dalg‘ovlar, haddan ziyod tezkor ilmiy va texnologik olg‘a siljishlar, tabiatga qarshi ayovsiz “hujum”ning jadallashuvi, demografik portlash kabi ulkan va keng miqyosli o‘zgarishlarning tarkibiy qismlaridan biri bo‘ldi. Individual tasavvurga ko‘ra atigi yuz yil oldin bu o‘zgarishlarning ko‘pi tabiiy va progressiv deb hisoblangan, murakkabligi va salbiy tomonlari ko‘pchilikka ko‘rinmagan, ko‘ringanida ham insoniyatning ko‘pchilik qismi nazdida bu hol ularning shaxsiy hayotidan tashqarida, qayerdadir boshqa yoqlarda, ularga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv qonuniyatlar tufayli sodir bo‘lyotganday edi.

Ulardan asosiylari sifatida bugungi kunda quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- harbiy,
- ijtimoiy,



- iqtisodiy,
- informatsion (axboriy),
- mafkuraviy,
- ilmiy,
- madaniy,

- milliy xatarlarni ajratish mumkin. Biz o'z ishimizda globallashuvning faqat ma'naviyat bilan bog'liq tomonlari haqida fikr yuritishni maqsad qilib olganimiz bois qolgan xatarlar masalasiga to'xtalmaymiz.

Milliylikka tahdid. Yuqorida sanab o'tilgan xatarlardan saqlanishning asosini milliy o'zlikni anglash³⁷ tashkil etadi. Zero, o'zlikni bilmay o'zlikni himoyalash ma'noga ega emas (tavgologiya). Lekin hozirgi davrda o'zlikni anglashning o'zi ham oson kechmayapti. Chunki, atigi o'ttiz yil oldin biz yagona sovet "oilasi" tarkibida edik, milliy o'zligimiz uzoq "uyqu" holatida bo'lgan edi. Endilikda o'tgan 70 yil mobaynida unutgan milliy o'zligimizni qayta kashf etmoqdamiz. Bu oson va tez kechadigan jarayon emas. U katta ma'naviy va moddiy safarbarlikni taqozo etmoqda. Boz ustiga, yuqorida ta'kidlaganimizday, "ommaviy madaniyat" va globallashuv niqoblari ostida aslida milliy qadriyatlar tizimini o'zgartirish, ularni yo'qotish jarayonlari ham ketmoqda. Bu jarayonlarga qarshi turish borasida juda katta ishlar qilindi va qilinmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. **"Yangi O'zbekiston"** va **"Uchinchi Renessans"** so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda"³⁸. "Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi, - deb uqtiradi bu borada birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, - avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi,

³⁷ Бу ҳақида батафсилроқ қаранг: Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. Т. "Янги аср авлоди". 2008. – 112 – 193.

³⁸ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston "Yangi O'zbekiston" . <https://iiv.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga> aylanmoqda . 17.08.2021



madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liq"³⁹.

Ammo hamon bajarilishi kerak bo'lgan ishlar miqyosi katta. Lekin, yuqorida aytganimizday, globallashuv jarayoni bizni kutib turmaydi, u har qanday millatni o'zlikdan judo qilib, uni ommaviy podaga aylanish yo'liga solmoqda. Bu, ayniqsa, hozirgi davrda keng avj olayotgan migratsiya jarayonlari munosabati bilan yaqqol namoyon bo'lmoqda. Vaholanki, aynan milliy o'zlik hozirgi davrda mamlakatni mamlakat qiladigan uch buyuk kuchdan, ya'ni pul, ijtimoiy fikr, millatdan biri, ularning eng asosiysi va ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Zero, chinakam pulni (sof boylikni) ham millat ishlab topadi (yaratadi), ijtimoiy fikr ham aynan milliy o'zlikka bog'liq. Ayni milliy o'zlik tuyg'usining kuchi aholi ijtimoiy ongini inqirozdan, noobyektiv informatsiya xataridan saqlaydi. "Shu boisdan ham, o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondosha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqlool yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi"⁴⁰. Ayni shuning uchun "Birinchii navbatda, milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz — shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish⁴¹ bo'lishi kerakligi ravshan.

Milliy o'zlikning shakllanishi esa, avvalo, millat hayotiy faoliyatining maqsad va marralarini belgilaydigan o'z g'oyalari, mafkurasi, nazariy tilda aytsak, o'z konsepsiyasining shakllanishi bilan uzviydir⁴². Rus faylasufi

³⁹ Каримов И.А. Юсак маънавият — енгилмас куч.-Тошкент.: Маънавият. 2008. - Б. 76- 77.

⁴⁰ Каримов И.А. Юсак маънавият — енгилмас куч.-Тошкент.: Маънавият. 2008.- Б. 77.

⁴¹ Каримов И. Юсак маънавият — енгилмас куч.-Тошкент.: Маънавият. 2008.— Б. 78.

⁴² Қўчқоров В. Миллий ўзликни англаш ва ижтимоий-сммёсий жараёнлар. Т., "Академия" 2007.



M.I.Belyayevning⁴³ fikriga ko'ra, butun insoniyat yaxlit organizmida har bir millatning o'z o'rnini belgilaydigan g'oyasi bo'lishi kerak va rus millatining g'oyasi davlat quruvchanlikdadir.

Bizningcha, bizning o'tmish ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqib hozirgi milliy g'oyamiz asosiga qo'yilgan "komil insonlar jamiyatini qurish" g'oyasi bundan ancha keng va chuqur. Vaholanki, komil inson o'zligini bilgan insondir! Ayni shu g'oya jamiyatimiz o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq to'g'ri tanlagan yo'limizdir. Ushbu o'zlikni bilish konsepsiyasining eng oliy, keng qamrovli va teranligi esa uning inson uchun ham, millat uchun ham bosh oliy maqsad ekanida, qolgan barcha muhim va yuksak g'oyalarni ham, shu jumladan, davlat qurish dasturini ham o'z mazmuniga olishidadir. Zero, faqat o'zligini bila olmagan, ma'naviyati, ruhiyati tuban kishi va shunday kishilar jamiyatigina har kimning qo'lida qo'g'irchoq bo'lishi, turli shov-shuvlar qurboni bo'lishi mumkin.

To'g'ri, bu konsepsiya bizda hozircha tugal va keng quloq otganicha yo'q. Buning uchun, avvalo, biz shu kungacha tayanib kelgan, endilikda inqirozga uchragan dunyoqarashimizni o'zgartirishimiz (transformatsiyalashimiz) kerak. Chunki, biz shu kungacha tayanib kelgan ilmiy falsafiy (materialistik) dunyoqarash, garchi 70 yil mobaynida uning ilmiyligi, progressivligi, mutloq haqiqat ekani, boshqa ta'limotlardan afzalligi juda yaxshi singdirilgan esada, aslida u endilikda krizisga uchragan G'arb madaniyati, fani va falsafasi bag'rida shakllangan, undan oziqlangan va undan kelib chiqqan bir oqim edi. SSSRning parachalanishi uning inqirozining natijasi bo'ldi.

Endi biz o'z milliy dunyoqarashimizni qayta shakllantirishimiz kerak. Lekin biz hozircha o'z miliy dunyoqarashimiz rasmana va keng qad ko'tardi deya olmaymiz. Chunki bu nafaqat o'z o'tmish ma'naviy qadriyatlarimizni yaxshi eslab olish, ularning yo'qotilgan yoki buzilgan joylarini qayta tiklash, yangi hayotga tatbiqan qayta ishlovdan o'tkazish kabi murakkab va uzoq jarayonni va nafaqat XX

⁴³ Қаҳҳорова Ш. Глобаллашув Шароитида Инсон Ҳаёти Маъноси.-Тошкент.2009.-Б.44.



asr G'arb falsafasi nima uchun inqirozga uchraganini hamda ushbu krizisning mohiyatini aniqlashni, balki madaniyat tarixida hikmat ilmi hisoblangan falsafiy, diniy, qolaversa, mifologik dunyoqarashlar mazmunini ham qayta tahlil etishni ham taqozo etmoqda.

O'ZBEK BOLALAR FOLKLORIDA FITONIMLARNING KO'CHMA MA'NOLARI LINGVOPOETIKASI

Muqimova Gulnora Rashidovna

BuxDU mustaqil tatqiqotchisi,

Buxoro viloyat XTXQTMOHM

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya. Inson tabiat qo'ynida ekan, xohlaydimi, yo'qmi u tabiatga murojaat qiladi. Tabiatda bo'ladigan har bir voqea va hodisalar insoniyatning nutqida yanada sayqallanadi. Ayniqsa fitonimlarning xalq og'zaki ijodida ko'chma ma'noda kelishi leksikaning boyishiga xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, Bahor sayllarida "Boychechak xabari" yoki "Boychechak", "Lola", "Guli surx" "Qizil gul" kabi bolalar qo'shiqlari aytiladi. Masalan, "Boychechak" – bolalar kuylaydigan mavsumiy va marosim qo'shig'i. Unda ifodalangan boychechak obrazi ko'chma ma'noda ishlatilib, xalqning o'tmishidan xabar beradi.

Kalit so'zlar: mutolaa, mutolaa madaniyati, badiiy matnlar, folklor, janrlar, fitonim.

Ma'lumki, metafora ma'lum bir narsa va buyumning nomini boshqa buyum va narsaga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish ma'nosini anglatadi⁴⁴ va bunda ifodalangan tasvir tushunchalardan birining muhim sifatini ta'kidlaydi, inson qiyofasi, jonli va jonsiz tabiat dunyosi, inson faoliyati sohalari, shuningdek, inson tomonidan ishlab chiqarilgan narsalar bilan taqqoslanadi. Inson shu tabiat qo'ynida ekan, xohlaydimi, yo'qmi u tabiatga

⁴⁴ N. Mahkamov, I. Ermatov. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent, 2013



технологияларнинг жорий этилиши таълим-тарбия жараёнинг юксак савияда ривожланиши ва ўқувчиларнинг замон талабларига жавоб бера оладиган билим, кўникма ва малакалар билан шаклланишига улкан кўмак беради. Зеро, президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганларидек: “Бугунги ёш авлод эртага халққа айланади”. Демак у халққа айланар экан ўзбек халқи яна яшашда давом этади. Ўзбекистоннинг тақдири эса мана шундай халққа айланган ёш авлодларнинг қўлида.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. TABIIY VA GUMANITAR FANLAR TADQIQI MUAMMOLARI VA INNOVATSION G‘OYALAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI		
Daminov M. I.	ZAMONAVIY TA‘LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	3
Xamidov O. X.	TA‘LIMDA XALQARO TAJIRIBALARDAN FOYDALANISH GERMANIYA TA‘LIM TIZIMI	5
Huseynova A. A.	XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR XUSUSIDA	8
Muxtorov E. M.		11
Raximov Sh. A.	LUG‘ATLAR – XALQ XAZINASI	13
Ikramov A. A.	DAVLAT TILIGA E‘TIBOR	15
Amonova Z.Q. Murodova G.	“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING MATNIY XUSUSIYATLARI	18
Amonova Z. Q. Safarova Sh.	“QUR‘ONI KARIM” – BOQIRG‘ON HIKMATLARINING MANBASI SIFATIDA	27
Tosheva D.A.	MAQOLLARDA XALQ MILLIY QADRIYATLARINING AKS ETISHI	34
Murtozayev Sh. B.	GLOBALLASHUV JARAYONIDA	43



Axtamov B.A. Muqimova G.R.	MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORIDA FITONIMLARNING KO‘CHMA MA’NOLARI LINGVOPOETIKASI	47
Jamolova N.J. Botirova S.M. Alixonov F.H.	KREZOLNI VINILLASH JARAYONI KINETIKASI	50
Tag‘oyeva D.N. Kurbanovna A.M.	YUKSAK MA’NAVIYATLI AVLOD - UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI	54
Эргашева Д.К.	ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ РУССКОГО НАРОДА	59
Pulatova M.T. Safarova M.A.	THE ANALYSIS OF MAIN CHARACTERS IN “ROMEO AND JULIET” BY WILLIAM SHAKESPEARE	62
Axrora Z.R.	BIR G‘AZAL SHARHI	67
Xudoyberdiyeva N. Tohirova B.	TEJAMKORLIK – O‘ZBEK TILI GRAMMATIK QURILISHINING BOSH XUSUSIYATI	72
Elonova S.	ALISHER NAVOIY VA BOBUR	80
Bakayeva Sh.B. Nasimova H.L.	RESEDA - DORIVOR O‘SIMLIK, YETISHTIRISH VA PARVARISH QILISH. XUSHBO‘Y MIGNONETTE: URUG‘LARDAN O‘SADIGAN MIGNONETTE YETISHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH	84
Мустафоева Л.	ЎЗБЕК ВА РУС ХАЛҚ ПАРЕМАЛАРИДА ҚЎЛЛАНГАН “ГЎШТ” ЛЕКСЕМАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ	89
Doniyorov B.	BUXORO SHAHRI EKOTIZMLARIDA ODDIY MAYNA (ACRIDOTHERES TRISTIS LINNAEUS, 1766) NING UCHRASHI, KO‘PAYISHI VA SONINI BOSHQARISH MASALALARI	93

